**TDSHU TSXIMI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi**

## “Barqaror iqtisodiy rivojlanish” markazining 2025-2026- o‘quv yili faoliyati yuzasidan yillik hisoboti

1. “Iqtisodiyot va menejment” va “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedralarining MD mavzulari markaz tomonidan ko‘rib chiqilib, tasdiqlandi.
2. Kafedraning ilmiy faoliyati bo ‘yicha yillik rejalari ishlab chiqildi.
3. Markaz qoshida “Oriental lab” startap labaratoriyasi ochildi






4. Markaz qoshida "Sustainable minds" to'garagi ochildi



5. “Sustainable minds” to‘garagining “Barqaror rivojlanish maqsadlari” bo‘yicha musobaqasi o‘tkazildi. Talabalar tomonidan video-roliklar tayyorlandi.




6. 2025-2026-yilda kafedraga mustaqil tadqiqotchilik asosida qabul qilinayotgan tadqiqotchilarning mavzulari “Barqarorlik-sustainability” bo‘yicha tuzildi.



7. Barqarorlik asosida kafedra professor-o‘qituvchilarni AKT bo‘yicha ilmiy saloyihatlarini oshirish uchun 3 hafta davomida kurs tashkil qilindi va kurs yakunida sertifikatlar taqdim qilindi.












8. Yevropa Ittifoqida barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida TDIU da o‘tkazilgan Erasmus+ Jean Monnet Centre of Excellence in Sustainable Business and Finance (ECESBFS) xalqaro konferensiyasida kafedrasi mudiri Z. Kadirova o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi.




9. Kafedra professor-o‘qituvchilari SDG 3 – sog’lom turmush tarzi borasida video rolik tayyorladilar.




10. Qulsaxatova Sevara xalqaro coursera platformasida “Barqaror rivojlanish” bo‘yicha o’qib, sertifikatga ega bo‘ldi




11. Gaziyeva Sulhiya “Barqaror rivojlanish orqali islom moliyasini rivojlantirish” nomli 6 haftalik kursda malaka oshirmoqda.




12. Barqaror rivojlanish bo‘yicha kafedra dotsent v.b. Zaynuddinov Ismoilning 2 ta maqolasi “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etildi va 3ta maqolasi UzA da e’lon qilindi.










13. Barqaror rivojlanish bo'yicha kafedra o'qituvchisi Mardonov Shohruxning 1 ta maqolasi UzA da e'lon qilindi.




14. Barqaror rivojlanish bo'yicha Gaziyeva Sulhiyaning 2 ta maqolasi "Pravda vostoka" gazetasida chop etildi va 3ta maqolasi UzA da e'lon qilindi.






TDSHU • ТГУВ • TSUOS
7 769 subscribers

Pinned message
DIQQAT E'LON! Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida

TDSHU • ТГУВ • TSUOS


2 14 ОКТЯБРЯ 2025 ГОДА

ПРАВДА ВОСТОКА

№ 212

# ТРАНСПОРТНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И ПРОИЗВОДСТВЕННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ: КУРС НА ОБНОВЛЕНИЕ И МОДЕРНИЗАЦИЮ

# ОБСУЖДЕНЫ АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ

# ОТ ЭКОНОМИКИ РЕСУРСОВ К ЭКОНОМИКЕ ЗНАНИЙ: НОВЫЕ ИНИЦИАТИВЫ УЗБЕКИСТАНА В РАМКАХ СНГ

#TDSHU_OAVda

TDSHU Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsent v.b., Barqaror iqtisodiy rivojlanish markazi rahbari **Sulxiya Gaziyeva**ning **"От экономики ресурсов к экономике знаний: новые инициативы Узбекистана в рамках СНГ"** nomli maqolasi **"Правда востока"** gazetasining 212-sonida chop etildi.

***TDSHU Matbuot xizmati/Пресс-служба ТГУВ/Press secretary of TSUOS***

TDSHU • ТГУВ • TSUOS
7 769 subscribers

Pinned message
DIQQAT E'LON! Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida

Twitter | tsuos.uz
2117 21:13

TDSHU • ТГУВ • TSUOS
#TDSHU_OAVda

TDSHU Barqaror iqtisodiy rivojlanish markazi rahbari **Sulxiya Gaziyeva**ning Dushanbe shahrida o'tkazilgan MDH davlatlari rahbarlari sammiti yuzasidan fikrlari UzA saytida yoritildi.

**Batafsil:**https://uza.uz/uz/posts/hamkorlik-orqali-barqarorlik-integraciya-orqali-taraqqiyot-ekspert-tahlili_769605

***TDSHU Matbuot xizmati/Пресс-служба ТГУВ/Press secretary of TSUOS***

Telegram | Facebook | Youtube | Instagram | Twitter | tsuos.uz

Uza.uz
**Ҳамкорлик орқали барқарорлик, интеграция орқали тараққиёт – эксперт таҳлили**
Душанбе шаҳрида МДҲ давлатлари раҳбарлари саммити, шунингдек, "Марказий Осиё – Россия" форматдаги иккинчи ...



15. Kafedra doirasida 2 nafar xitoylik va 1 nafar pokistonlik xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot mavzulari barqaror rivojlanish maqsadlari asosida shakllantirildi.

16. Markazda ilmiy tadqiqot, ilmiy tezis va maqolalar yozish bo‘yicha har haftalik darslar tashkil etildi.




17. Kafedra professor-o‘qituvchilari Kadirova Z.A., Peng Xenge, Gaziyeva S.S. hamda Riskulov R. larning barqaror rivojlanish bo ‘yicha ilmiy maqolalari xalqaro skopus bazasida indekslanadigan Bakudagi konferensiyaga taqdim qilindi.




18. 2025-yil 28-yanvar kuni TSXMI Barqaror iqtisodiy rivojlanish markazi vakillari Xalqaro agrar universitetida tashkil etilgan SDG markazlari uchrashuvida ishtirok etdilar. Uchrashuv jarayonida Webster universiteti,

TDSHU hamda Xalqaro agrar universiteti huzuridagi SDG markazlari yetakchilari bilan kelgusidagi rejalar, konferensiyalar va hamkorlikda o‘tkaziladigan tadbirlar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.




19.#SDG4 2026-yilning 3-fevral sanasida “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” fanidan PhD. dotsent v.b Gaziyeva S.S. tomonidan *“Xalqaro savdo nazariyalari”* mavzusida ochiq dars bo’lib o’tdi. Dars barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan bog’lab o‘tildi.




20.#SDG4 #SDG5. 2026-yil 11-fevral kuni Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar institutida “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi tashabbusi bilan “Tadbirkor qizlar Art-bazari” ko‘rgazma-savdosi tashkil etildi. Unda

institutining 2–3-bosqich talaba-qizlari o‘zlarining mualliflik mahsulotlari va ijodiy-biznes loyihalarini taqdim etdilar.




21.#SDG_Zakovat Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti va Barqaror iqtisodiy rivojlanish markazi qoshidagi “Sustainable Minds” jamoasi tashabbusi bilan “Sustainable Development Goals” mavzusida “SDG Zakovat” intellektual o‘yini bo‘lib o‘tdi.




22.SDG 4 doirasida Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi o‘qituvchilari tomonidan ajoyib tashabbus — “Kitobni mehr bilan ulashing”chellenji taqdim etildi.




23. “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi huzuridagi Barqaror iqtisodiy rivojlanish ilmiy markazi tomonidan 2026-yil 14-may kuni “Barqaror iqtisodiy rivojlanish sari” mavzusida talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.






24. Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida 30-mart — “Xalqaro chiqindilarsiz kun” va 22-aprel — “Yer kuni” munosabati bilan tashkil etilgan tanlov yuqori saviyada va katta qiziqish bilan o‘tkazildi.




25. #SDG4 #SDG17 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti delegatsiyasi Malayziyada navbatdagi uchrashuvni amalga oshirdi. TDSHU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi mudiri Z. Kadirova hamda “Barqaror iqtisodiy rivojlanish” markazi rahbari S. Gaziyeva University Sains Islam Malaysia (USIM) universitetiga tashrif buyurib, “Leadership and Management” fakulteti dekani Norhayati Rafida bilan samarali muzokaralar olib bordilar.




26. #SDG4 #SDG17 Malayziyaning INTI xalqaro universitetida bo'lib turgan 'Iqtisodiyot va menejment' kafedrasi professor-o'qituvchilari universitetning Xalqaro hamkorlik markazi direktori Assoc. Prof. Ts. Dr. Choo Wou Onn hamda Biznes va kommunikatsiyalar fakulteti dekan o‘rinbosari Siti

Nurbaayah Binti Daud bilan uchrashdilar hamda akademik mobillik va hamkorlikdagi tadqiqot imkoniyatlari muhokama qilindi.




27.#SDG4 #SDG17 Iqtisodiyot va menejment kafedrasi mudiri hamda Barqaror iqtisodiy rivojlanish Markazi Rahbari Malayziyaning QS rankingda 58-o‘rinda bo‘lgan Malaya universitetida barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida amalga oshirish mumkin bo’lgan hamkorlik masalalarini muhokama qildilar.




28.#SDG4 #SDG17 2026-yil 15-may kuni TDSHU Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti “Barqaror iqtisodiy rivojlanish” markazi

tomonidan "Yevropa Ittifoqida barqaror rivojlanish maqsadlari" mavzusida trening tashkillashtirildi. Iqtisodiyot va menejment kafedrasi professor o’qituvchilari Gaziyeva S.S. va Qulsaxatova S.B.lar tomonidan Iqtisodiyot yo’nalishi 1-bosqich talabalari uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish maqsadlari tushuntirib o’tildi.




29.#SDG4 #SDG8 #SDG17 2025-yil 15-may kuni TDSHU Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti huzuridagi “Barqaror iqtisodiy rivojlanish” markazi tomonidan “Barqaror inson resurslarini boshqarish” mavzusida trening tashkil etildi. Trening davomida “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi mudiri Kadirova Z.A. tomonidan TIF, Mintaqaviy iqtisodiyot hamda Turizm yo‘nalishlari 1-bosqich magistratura talabalari uchun barqaror inson resurslarini boshqarish tizimi, zamonaviy mehnat bozori talablari hamda munosib ish o‘rinlarini yaratish borasidagi sa’y-harakatlar haqida batafsil ma’lumot berildi.




30.#SDG4 #SifatliTalim. Yangi adabiyotlar taqdimoti bo‘lib o‘tdi! Universitetimizda “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi professor-

o‘qituvchilari tomonidan nashr etilgan yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalari taqdimoti o‘tkazildi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish darsligi ham taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu darslikning chop etilishi markaz uchun katta yutuq.




BIR markazi rahbari S.S.Gaziyeva